



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Tog'ay Murodning " OTAMDAN QOLGAN DALALAR "romanida qo'llangan maqollar tahlili.

Abruyeva Sarvinoz Akmal qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand
davlat universiteti filologiya va tillarni
o'qitish o'zbek tili yo'nalishi
2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada badiiy adabiyotda xalq maqollarining qo'llanilishi Tog'ay Murodning "Otamdan qolgan dalalar " romani asosida tahlil qilingan.

KALIT SO'ZLAR: Maqol, matal, paremiologiya, o'z ma'no ,ko'chma ma'no, tazod.

Maqol -xalq og'zaki ijodining faol janri. Maqol deb xalqning ijtimoy - tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlarga aytiladi . Maqol atamasi arabcha- "Qavlun" - "gapirmoq, aytmoq" so'zidan olingan. Maqol o'zbek tilida maqol, tojiklarda zarbulmasal, ruslarda poslovitsa, arablarda (jonli so'zlashuvda)naql ,turklarda ata so'zi atamasi bilan yuritiladi.

Folklorshunos olimlar maqol va matallarni o'rganuvchi sohani paremiologiya deydi. Paremiya -yunoncha chuqur ma'noli gap , hikmatli so'z , ibora, maqol, matal ma'nosini beradi. (1, 205- bet)

Maqollar hajm jihatdan ixcham bo'lsa-da, fikr va mazmun jihatdan keng qamrovli bo'ladi. Maqol o'z tabiatiga ko'ra xalqaro janrlardan biridir. Dunyoda o'z maqollariga ega bo'lmagan xalqning o'zi yo'q. Chunki har bir xalq hayotiy tajribalarini maqollar shaklida avlodlarga qoldiradi.

Ilmiy adabiyotlarda maqol va matal tushunchasini bir- biri bilan chalkashtirish mavjud. Hatto " O'zbekiston Qomusi " da ham, bizningcha, maqol maqolasiga matal, matal maqolasiga maqol misol sifatida keltirilgan. Aytib o'tish lozimki, olib borilgan ilmiy kuzatishlar maqol va matal o'rtasida farq borligini ko'rsatmoqda. Jumladan, maqol alohida qo'llanganda tugal fikrni bildiradi va hayotda uchrab turadigan o'xshash lavhani izohlaydi. Matal alohida qo'llanganda, mustaqil ma'no ifodalamaydi va notiq fikrining badiiyligini oshirish uchun xizmat qiladi.

Maqol va matallarning matnlari badiiy jihatdan juda mukammal hisoblanadi. Maqollarda istiora, o'xshatish, sifatlash, qiyoslash kabi vositalardan ko'p foydalaniladi. Shuningdek, tazod san'ati ham faol ishtirok etadi. (4, 33- bet)

O'zbek yozuvchisi Tog'ay Murodning " Otamdan qolgan dalalar " romanida bir qancha xalq maqollari qo'llangan bo'lib, ular badiiy asar tilining yanada jozibali bo'lishiga xizmat qilgan. Yozuvchi deyarli har bir asarida maqollardan unumli foydalanishga harakat qiladi.

Ushbu romanda asar bosh qahramoniga nisbatan otdan tushsa ham egardan tushmaydi deya keltirilgan (12- bet), ya'ni Dehqonqul amal qilgan e'tiqodlari sarob bo'lganda ham, tagi puch g'oyalarga





sodiqlicha qoladi. Uning fojiasi - ham kulgili, ham ayanchli qismati shu jarayonda sodir bo'ladi.

Bilamizki, maqollarda badiiy tasvir vositalari faol ishtirok etadi. Ayniqsa, tazod (qarshilantirish) san'atidan ko'p foydalanilishini uchratamiz. O'rtoqlar, paxta bizning ko'zimni emas, biz paxtaning ko'zini qo'rqitaylik! O'rtoqlar, ko'z qo'rqqoq, qo'l botir, jasoratga biz qodir! (70-bet). Bu yerda qo'rqqoq va botir so'zlari vositasida tazod san'ati namoyon bo'lgan. Mazmuni avval biror ish ko'zga juda qiyin, qo'rqinchli yoki murakkab tuyuladi, ammo unga qo'l urilsa, u ish bajarilishi mumkin ekanligi nazarda tutilgan. Yo pirim-e, yo, pirim-e, bizda nima ayb?

-Maskovga pora bergansan!

-"Holvani hokim yeydi - kaltakni yetim yeydi"- deyдилar.

Ivan Ivanovich boshimlab keldi. Halqumimdan g'ippa bo'g'ib oldi. (323-bet)

-Ana, ko'ryapsizlarmi, o'rtoqlar? - deydi direktorimiz.

-Qazisan, qartasan, axir aslingga tortasan! Sovet dushmani paxta terarmidi (78-bet) Kim bo'lishingdan qat'iy nazar, baribir naslingdagi odamlar kabi bo'lasan degan mazmun ifodalangan.

-Ko'rikdan maqsad,- dedi katta,- kelajagi bor mashinalarni aniqlash, so'ngra ularni ommaviy ishlab chiqarishga tavsiya etishdir. Bu juda murakkab masala, Yetti o'lchab bir kesadigan masaladir. Ushbu maqol orqali aql bilan ish tutish kerak ekanligi yoritilgan.

Maqollar o'z va ko'chma ma'nolarga ega bo'lishi bilan yana ham diqqatga sazovordir. Masalan, Yer haydasang kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda! O'ynab qo'yay! Maqoldan-da o'ynab qo'yay!

Men dalalarimga temirtish soldim. Dalalarimni qirq santim o'yib haydadim. (103-bet) Ushbu maqolda o'z ma'no anglashilib turibdi. Ammo shu aytib o'tishimiz joizki, bu maqolni Xorazm viloyatida o'z ma'nosida qo'llab bo'lmaydi. Sababi, Xorazmda yer osti suvlari yer sathiga yaqin bo'lgani uchun kuzda haydalsa, yer qatqaloq bo'ladi hamda hosildorlik pasayadi. (1, 207-bet)

-Bola, bola! Umrin bola boqib o'tdi! Otasini boqqanim kamday, endi bolasiniyam boqaman!

-Bolamni to'ygunimcha boqaman, nevaramni ulgunimcha boqaman, deganlari shu-da, ena,- dedi ayolimiz (147-bet)

Biz yozuvchi asarining ba'zi joylarida maqollardagi gaplarning o'rni almashgan holatini ham ko'rishimiz mumkin va bu uning mahoratidan darak beradi. Xalq qarg'asa, xor bo'lasan, Xalq qo'llasa, bor bo'lasan (5, 20-bet) maqoli shunday holatda qo'llanganini ko'rishimiz mumkin.

-Bajonidil, taqsir, bajonidil. Oqqoshsho hazratlari azm-u ixtiyor aylaganlariday bo'la qolsin. Ammo - lekin ahli xalq ko'zida Xudoyi taolo dargohini to'pga tutsalar, xal qarg'aydur, taqsir, xalq qarg'aydur.

-Xalq?





-Shunday, taqsir, shunday. Xalq qo'llasa – bor bo'ladur, Xalq qarg'asa - xor bo'ladur (33- bet).

Xalq maqollari badiiyatini ta'minlab turuvchi vositalardan biri majozdir. U ko'chimning bir turi hisoblanadi hamda unda o'simlik, narsa-predmetlar va hayvonlar orqali insonlarga xos bo'lgan xarakter ochib beriladi .Jumladan, “Shamol bo'lmasa, daraxting uchi qimirlamaydi”, “Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi”, “ Bo'krini go'r tog'irlaydi”, “ Qush uyasida ko'rganini qiladi”, “Olmaning tagiga olma tushadi”, “ Qush tilini qush biladi “ kabi maqollar bilan tanishganimizda ko'chma ma'no yashiringanini his qilamiz.

Maqollarni qo'llashdan maqsad didaktika bo'lib, maqollar juda katta ta'limiy- tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

-Olisni sho'rvasidan, yaqinni yovg'oni yaxshi (21-bet)

-O'ttizida er atangan qirqida sher atanur (31-bet)

-Tili boshqa aslo el bo'lmas (33-bet)

-Vatan gadosi kafan kafan gadosi (63-bet)

-Oshing yesada mard yesin, boshingni yesada mard yesin (64-bet)

-Qish oladan, yoz moladan (1080-bet)

-Yon qo'shning - jon qo'shning (157-bet)

-Mehnat mehnatning tagi rohat (164 – bet)

-Qari bilganni pari bilmas (165 – bet)

-Och qornim – tinch qulog'im (165 – bet)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maqollar xalqning ma'naviy mulki bo'lib , yozuvchilar badiiy asarlarida turli maqsadlarda foydalanadi. Xususan, Tog'ay Murod xalq maqollarini o'z asarida unumli ishlatib, ularning purhikmat fazilatidan fiydalanib, o'quvchi e'tiborini tortishga erishadi va uni xalqqa yaqinlashtiradi. Bu orqali o'quvchi o'z qadrdoni kabi munosabatda bo'lishiga erishadi. Qolaversa, “ Maqol - donishmandlik ramzi. Ular o'quvchilar va tinglovchilar fikrini chuqur, ixcham, aniq va obrazli qilib ifodalashga o'rgatsa, yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita vazifasini o'taydi “. (2, O'quv qo'llanma)

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Mirzayev T, “O'zbek folklori “. Darslik. TOSHKENT “MALIK PRINT CO”, - 2021

2.Muhitdinova N, “ O'zbek folklori “. Darslik. O'quv qo'llanma. Samarqand, - 2019

3.Tog'ay Murod “ Otamdan qolgan dalalar “ roman. “ZUKKO KITOBXON” nashriyot - matbaa uyi, Toshkent -2025

4.O'zbek folklori. O'quv - uslubiy majmua. Namangan- 2024

5.O'zbek xalq maqollari.Toshkent-2005

